

**Boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan metodlar.****Ta'lim dasturida metodikaning o'rni****Matniyozova Gulrux Xayrullayevna**

Toshkent Shahar Uchtepa tumani 296-maktab

boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda tez suratlarda o'sib, rivojlanib borayotgan texnologiya kuchiga tayangan dunyoda farzandlar (yoshlar) ta'lim-tarbiyasiga chuqur ahamiyat berilmoqda. Sababi bu zamonaviy dunyoni, hozirgi imkoniyatlar sonini, rivojlanish bosqichini yuksaklarga ko'tarish aynan yosh avlod qo'lidadir. Yosh avlodni ko'ngildagidek tarbiyalashni dastur-ul amal qilib olgan bu dunyo talablariga ko'ra maktab ta'lim dasturlari zamonaviy va samarali ta'lim metodlarini o'z ichiga olmoqda. Ushbu ilmiy-amaliy maqola boshlang'ich sinflarni o'qitish bo'yicha zamon talablariga mos samarali metodlar va ularning dars jarayonlarida qanday qo'llash usullari to'g'risida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: metod, metodika, nazariya, amaliyot, ta'lim dasturi, natija, xulosa.

Metod va Metodika haqida: Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) — voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Metodika keng doirada mana shu dars jarayonlarida qo'llaniladigan sanoqsiz metodlar jamlanmasi sifatida tushuniladi. Tor doirada esa ma'lum bir darsga oid barcha metodlar majmuini ilmiy nazardan o'rganadigan, rivojlantiradigan fan sifatida tushunish lozim.



Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda ham metodika fan sifatida o'quv darsturlariga kiritilgan. Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, metodika bu dars jarayonidagi turli maqsadlarga eltuvchi yo'llar, uslublar bo'lib, uning o'qituvchi oldiga qo'yadigan savoli o'quvchi o'rganayotgan materialni QANDAY usulda muvaffaqiyatli o'zlashtira oladi va rivojlantiradi demakdir.

Audio-lingual metodining boshlang'ich ta'limda amaliy qo'llanilishi.

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'yishganidan boshlab o'quvchilarini o'qitish dasturida eng ko'p qo'llaniladigan metod bu audio-lingual metoddir. Chunki hali xat-savoddan tahsil olmagan, o'qish -yozishni bilmaydigan bolajonlarga faqatgina murojaat qilish orqali audio-lingual metod bilan ishlash ayni muddao. Ushbu metod faqatgina boshlang'ich ta'limning ilk davrida emas, balki boshlang'ich ta'limning so'nggi yillarida ham o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladi.

4-sinf o'quvchilari orasida tinglab tushunish faoliyatini yaxshilash maqsadida audio-lingual metoddan amaliyot sifatida foydalandim. Ushbu amaliyot uchun tanlab olingan matn nomi "O'zbekiston -kelajagi buyuk davlat". Avvalambor, o'quvchilarga matnni ifodali o'qib berish orqali matnning asosiy mazmunini tushuntirdim. Bu orqali o'quvchilar yangi mavzu doirasida bir nechta ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Keyin ulardan eslab qolganlarini so'zlab berishni so'radim. O'quvchilar orasida bir nechta ko'ngillilari javob berishdi. Ularning javob berishlari natijasidan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar ushbu matnning deyarli 65% ini eslab qolishgan edi. Keyin yana bir marta matnni o'qib berdim va yuqoridagi mashg'ulotni takrorlatdim. Natijada deyarli 84% ma'lumot ular tomonidan qabul qilindi. Yana bir marotaba ushbu matn o'quvchilarga o'qib eshittirildi va ulardan eslab qolingan ma'lumotlarni mashq daftarlariga yozish talab qilindi. Ular berilgan topshiriqni bajarishdi va ma'lum bo'lishicha ular matnda keltirilgan umumiy ma'lumotning deyarli 100% ini ochib berishga erishishgan. Ular uchun uyga vazifa sifatida esa "O'zbekiston- mening vatanim" mavzusida ijodiy insho yaratish va ushbu ijodiy ishlarida dars davomida o'rganilgan



matndagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati berildi. Dars jarayoni o'z nihoyasiga yetdi va o'quvchilarga tanaffus berildi.

Ushbu amaliyotdan xulosa:

Ushbu amaliyot orqali o'quvchilarga ijodiy fikrlash qobiliyati o'rgatildi. O'quvchilar o'z ijodiy ishlarini yaratishdan avval ularning so'z boyligini rivojlantirish maqsadida bir matn o'qib eshittirildi. Matnga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni ko'proq o'rganish maqsadida matn qayta qayta o'qituvchi tomonidan ifodali o'qildi. Bundan kelib chiqadiki, Audio-lingual meodi asosan takrorlashga asoslanadi. Shu bilan birga audio-lingual metoddan o'qituvchilar o'z o'quvchisiga she'r yoki monologni yod oldirish maqsadida ham foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Boshlang'ich ta'limda yangiliklar" nomli elektron yangiliklar jurnali
2. <https://sultonov.wordpress.com>
3. <https://nauchniyimpuls.ru.com>